



“ART & MUSIC PLANET” MCHJ  
 LLC “ART & MUSIC PLANET”  
 ООО “ART & MUSIC PLANET”  
 Direktor: Maxkamov Shuxrat Farxodovich;



“Kairat Kyrgyz” Xalqaro ijodiy markazi  
 “Kairat Kyrgyz” International Creative Center  
 Международный творческий центр “Кайрат Кыргыз”  
 Директор: Кайрат Салмакеев



“Türk Dünyası Kültür Mahallesi” xalqaro tashkiloti  
 Международная организация “Түрк Дүнясы Күлтур Магаллеси”  
 International Organization “Türk Dünyası Kültür Mahallesi”  
 Директор: Абдулметин Кескинбей



# Sharq gavhari

## II-XALQARO KO‘RIK-TANLOVI

O‘zbekiston, Buxoro

- Bosh tashkilotchi: “ART & MUSIC PLANET” ijodiy loyihasi. (O‘zbekiston)
- Hamkor tashkilotlar: “Kairat Kyrgyz” Xalqaro ijodiy markazi. (Qirg‘iziston)  
 “Türk Dünyası Kültür Mahallesi” xalqaro tashkiloti (Turkiya)

Mazkur Nizom O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Turkiyaning ijodiy tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, madaniy aloqalarni rivojlantirish, yosh ijodkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Tanlov davlatlar o‘rtasida do‘stlik, ijodiy almashinuv va san‘at sohasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan qo‘shma tashabbus sifatida tashkil etiladi.

“Sharq gavhari” II-xalqaro ko‘rik-tanlovi yosh iste’dodlarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy salohiyatini keng namoyon etish hamda o‘zaro ijodiy muloqot va tajriba almashish uchun qulay maydon yaratishni maqsad qiladi. Mazkur Nizom tanlovning tashkiliy tartibini, ishtirok shartlarini, baholash mezonlarini va tanlov jarayoniga oid boshqa masalalarni belgilab beradi.

### 1. UMUMIY QOIDALAR.

- 1.1. “Sharq gavhari” II-xalqaro ko‘rik-tanlovi xalqaro miqiyosida o‘tkazilib, unda musiqa va san‘at sohasida faoliyat yurituvchi ta‘lim muassasalari o‘quvchilari, talabalar, erkin ijodkorlar hamda xorijiy davlatlardan yakka ijrochilar hamda ijodiy jamoalar ishtirok etishlari mumkin.
- 1.2. Tanlov ikki bosqichda o‘tkaziladi va har ikkala bosqich ham oflayn (an‘anaviy) tarzda tashkil etiladi.
- 1.3. Tanlovni tashkil etish, tashkiliy jarayonlarni amalga oshirish, tanlovning barcha bosqichlarini o‘tkazish va hamkor tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirish “ART & MUSIC PLANET” MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

### 2. TANLOV BOSQICHLARI.

#### 2.1. 1-BOSQICH — SARALASH BOSQICHI (OFFLAYN)

- 2.1.1. I-Bosqich tanlovning saralash bosqichi bo‘lib, belgilangan joy va sanada oflayn tarzda o‘tkaziladi.
- 2.1.2. I-Bosqichda ro‘yxatdan o‘tgan barcha ishtirokchilar qatnashadilar.
- 2.1.3. I-Bosqich natijalariga ko‘ra har bir yo‘nalish va har bir yosh toifasidan 3 nafardan ishtirokchi I-darajali diplom bilan taqdirlanadi.

- 2.1.4. Faqat I-darajali diplom sohiblari II bosqichda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar.
- 2.1.5. I-Bosqichda II va III-o'rinlarni olgan ishtirokchilar diplom, medallar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar, ammo II bosqichga ishtirok etmaydilar.
- 2.1.6. Agar I-bosqichda ma'lum bir yo'nalish yoki yosh toifasida faqat 1 nafar ishtirokchi I-darajali diplomga loyiq deb topilsa, u II-bosqichda umumiy tartibda ishtirok etadi va natijalarga ko'ra 1-, 2- yoki 3-o'rinlardan birini egallashi mumkin.

## 2.2. II-BOSQICH — YAKUNIY BOSQICH (OFLAYN)

- 2.2.1. II-Bosqich tanlovning yakuniy bosqichi bo'lib, belgilangan joy va sanada oflayn tarzda o'tkaziladi.
- 2.2.2. II bosqich natijalariga ko'ra:
  - I-darajali laureat
  - II-darajali laureat
  - III-darajali laureat
  - Gran-pri laureati
- 2.2.3. II bosqichda ishtirok etgan barcha ishtirokchilar diplomlar va maxsus medallar bilan taqdirlanadilar.
- 2.2.4. Gran-pri sovrindorlari uchun esdalik sovg'alari, diplomlar, maxsus statuetka va hamkorimiz "Türk Dünyası Kültür Mahallesi" xalqaro tashkiloti (Turkiya) tomonidan o'tkaziladigan xalqaro tanlovga bepul yo'llanma sertifikatini tantanali topshiriladi.
- 2.2.5. I-Bosqichda ijro etilgan asar II-bosqichda ijro etishga yo'l qo'yilmaydi.
- 2.2.6. Ishtirokchilar soni 350 nafardan oshgan taqdirda, tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi.
- 2.2.7. Ishtirokchilar soni 350 nafardan kam bo'lsa, tanlov bir bosqichda o'tkazilib, yakuniy natijalar birinchi bosqich asosida aniqlanadi.

## 3. TANLOVNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH.

- 3.1. Ko'rik-tanlov 2026-yil 26-29-mart kunlari Buxoro shahrida an'anaviy (offlayn) tarzda o'tkaziladi.
- 3.2. Arizalar 2026-yil 10-martga qadar qabul qilinadi.
- 3.3. Belgilangan talablarga rioya qilinmagan taqdirda ishtirokchi tanlovdan chetlashtiriladi.
- 3.4. Har bir ishtirokchi yoki ijodiy jamoa bir nechta nominatsiyalarda ixtiyoriy tarzda qatnashishi mumkin.
- 3.5. Tashkiliy qo'mita zaruratga ko'ra tanlov shakli, muddati va nizomga o'zgartirish kiritish huquqini saqlab qoladi.

## 4. ISHTIROKCHILARNING YOSH TOIFASI.

1. 7-10 yosh;
2. 11-13 yosh;
3. 14-16 yosh;
4. 17-20 yosh;
5. 21-25 yosh;
6. 26-40 yosh;
7. Aralash guruh

## 5. NOMINATSIYALAR.

### A. GURUH – Xoreografiya: Ijro vaqti 8 daqiqagacha.

1. Milliy raqs;
2. Zamonaviy raqs;
3. Dunyo xalqlarining raqslari;

**B. GURUH – Xonandalik:** Ijro vaqti 8 daqiqagacha.

1. Estrada xonandaligi;
2. An'anaviy xonandalik;
3. Akademik xonandalik;
4. Estrada-vokal cholg'u ansambli;
5. Baxshichilik;
6. Folklor;
7. Xor jamoalari.

**C. GURUH – Cholg'u ijrochiligi:** Ijro vaqti 8 daqiqagacha.

1. Fortepiano (klassika, estrada, umumiy);
2. Xalq cholg'ulari;
3. An'anaviy cholg'u;
4. Damli va zarbli cholg'ular;
5. Torli cholg'ular.

**D. GURUH – Teatr aktyorligi va askiya san'ati:** Ijro vaqti 8 daqiqagacha.

1. Etyud, monolog, adabiy parcha, masal, qo'g'irchoq teatri, klounada va boshqa teatr janrlari;
2. Askiya san'atining barcha ko'rinishlari.

**E. GURUH– Tasviriy va amaliy san'at, dizayn.**

1. Rang tasvir, grafika, haykaltaroshlik;
2. Kashtachilik, naqqoshlik, kulolchilik, miniatyura, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, zargarlik, zardo'zlik va boshqalar;
3. Libos dizayni (kiyim eskizlari), sanoat dizayn, grafik dizayn, interyer dizayn, 3D dizayn (maket, model).

## **6. TANLOV ISHTIROKCHILARINI BAHOLASH.**

6.1. Tanlov ishtirokchilarining chiqishlari quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

**A. GURUH – XOREOGRAFIYA**

1. Raqs texnikasi va aniqlik (30 ball)
2. Sahna madaniyati va libos (20 ball)
3. Mimika va obraz (15 ball)
4. Sahnalashtirish (20 ball)
5. Asarning yoshga mosligi (15 ball)

**B. GURUH – XONANDALIK**

1. Vokal texnikasi (30 ball)
2. Diksiya va talaffuz (20 ball)
3. Intonatsiya (20 ball)
4. Repertuar tanlovi (10 ball)
5. Sahna madaniyati (20 ball)

**C. GURUH – CHOLG'U IJROCHILIGI**

1. Texnik mukammallik (30 ball)
2. Asarni to'g'ri talqinda ijro etish (30 ball)
3. Artistizm (20 ball)
4. Asarning murakkabligi (10 ball)

5. Repertuar tanlovi (10 ball)

**D. GURUH – TEATR AKTYORLIGI**

1. Ijro mahorati (30 ball)
2. Libos va grim (15 ball)
3. Asarni ijrochi yoshiga mosligi (10 ball)
4. Sahnaviy nutq (25 ball)
5. Tana plastikasi (20 ball)
- 6.

**E. GURUH – TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT, DIZAYN**

1. Asarning mavzuga mosligi (25 ball)
2. Ijodiy yondashuv (15 ball)
3. Texnik mahorat (30 ball)
4. Kompozitsion yechim (20 ball)
5. Estetika (10 ball)

6.2. Ishtirokchilarning ijrolari hakamlar hay'ati tomonidan yuqoridagi me'zonlar bo'yicha 100 ballik tizimda baholanadi:

- 1) 1 - 69 ball - diplom;
- 2) 70 - 79 ball - uchinchi darajali;
- 3) 80 - 89 ball - ikkinchi darajali;
- 4) 90 - 99 ball - birinchi darajali;
- 5) 100 ball - Gran-pri.

6.3. Shuningdek, qo'shimcha tarzda quyidagi maxsus nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi:

- “Milliy san'ati uchun”  
“Eng yaxshi yosh ishtirokchi”  
“Vatanparvarlik mavzusidagi eng yaxshi ijro”  
“Eng yaxshi jamoa”  
“Mahoratli ijrochi”

6.4. Ushbu nominatsiyalar g'oliblariga “ART & MUSIC PLANET” ijodiy loyihasi doirasida o'tkaziladigan offlayn tanlovlarda bir martalik bepul ishtirok etish huquqini beruvchi maxsus sertifikat topshiriladi

**7. ISHTIROK ETISH SHARTLARI.**

- 7.1. Xonandalik yo'nalishi ishtirokchilariga har ikki turda ham tanlov chiqishlarida fonogrammadan foydalanish taqiqlanadi. Shu bilan birga, minusovka audio yozuvidan foydalanishga ruxsat etiladi.
- 7.2. A-B-C va D guruh ishtirokchilarining asarlari har ikki turda ham ixtiyoriy tanlanadi va tanlov nizomida belgilangan vaqt oralig'ida ijro etadilar.
- 7.3. E guruh ishtirokchilari tanlov o'tkaziladigan maydonda 2 soat 30 daqiqa davomida amaliy ish bajaradi.
- 7.4. E guruh ishtirokchilari tanlovning 1-turida “Bahor nafasi” mavzusida amaliy ish bajaradilar.
- 7.5. E guruhining 2-turga o'tgan ishtirokchilari “Buxoro — sharq durdonasi” mavzusida amaliy ish bajaradilar.
- 7.6. Kashtachilik va zardo'zlik yo'nalishi ishtirokchilari dastlab qoralama (eskiz) chizadilar, so'ngra ushbu eskiz asosida amaliy ishni bajarishga kirishadilar. Umumiy ish jarayoni 5 soatni tashkil etadi.
- 7.7. Ishtirokchilar ish qurollarini o'zlari bilan olib kelishlari shart.

7.8. Ishtirokchi ro'yxatdan o'tish jarayonida taqdim etgan ma'lumotlar to'g'riligi uchun shaxsan javobgardir.

## 8. HAKAMLAR HAY'ATI A'ZOLARI.

- 8.1. Hakamlar hay'ati oliy toifali pedagoglar, musiqa va san'at sohasi mutaxassislari, malakali ekspertlar hamda professional ijodkorlardan tashkil topadi.
- 8.2. Tanlovning shaffoqligini ta'minlash maqsadida hakamlar hay'ati a'zolari tanlov boshlangunga qadar oshkor etilmaydi.
- 8.3. Hakamlar hay'atining qarorlari yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

## 9. ARIZA.

- 9.1. Ariza topshirgan ishtirokchi (yoki jamoa) tanlovning barcha shartlari va talablarini qabul qilgan hisoblanadi.
- 9.2. Tashkiliy qo'mita ishtirokchilarning foto va video materiallaridan foydalanish huquqiga ega
- 9.3. Ishtirok etish uchun badal (to'lov) quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

“ART & MUSIC PLANET” MCHJ hisob raqami:

X/R: 20208000805568550001

INN: 309873119

MFO: 00165

- 9.4. To'lov amalga oshirilayotganda izoh (naznachenije plateja) qismida ishtirokchining ism-familiyasi to'liq ko'rsatilishi shart

| TANLOVGA ISHTIROK ETISH UCHUN BADAL TO'LOVI                                                                                                                                                    |                                                   |                                      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|--------------------------------------|
|                                                                                                                                                                                                | O'zbekiston Respublikasi<br>ishtirokchilari uchun | Xorijiy ishtirokchilar<br>uchun      |
| Yakka                                                                                                                                                                                          | 430 000 so'm                                      | 43 \$                                |
| Duet va trio                                                                                                                                                                                   | 380 000 so'm<br>(har bir ishtirokchi uchun)       | 38 \$<br>(har bir ishtirokchi uchun) |
| Guruh va ansambllar uchun<br>ro'yxatdan o'tish                                                                                                                                                 | 330 000 so'm<br>(har bir ishtirokchi uchun)       | 33 \$<br>(har bir ishtirokchi uchun) |
| Kam ta'minlangan, imkoniyati<br>cheklangan va qo'shimcha<br>nominatsiyada ishtirok etish,<br>shuningdek bir oiladan ikki farzand<br>ishtirok etsa, ikkinchi farzand<br>uchun ro'yxatdan o'tish | 30% chegirma (asosiy badaldan)                    |                                      |

- 9.5. Ishtirok etish badali doirasida diplom, sovg'alar, medallar hamda nizomda belgilangan mukofotlar taqdim etiladi.
- 9.6. Tanlov dasturi ishtirokchilar ro'yxatdan o'tish yakunlanganidan so'ng alohida e'lon qilinadi.

“Sharq gavhari” II-xalqaro ko'rik-tanlovining o'tish manzili: Buxoro viloyati, Buxoro shahri.

“Sharq gavhari” II-xalqaro ko'rik-tanlovining shtab telefoni: +998991268001, +998908668001.